

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

ISLAMOV KARIM SAYIDMURADOVICH

**TO‘G‘ONSIZ SUV OLISHDA DARYONING
GIDRAVLIK VA NANOS REJIMLARI**

05.09.07 – “Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi”

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Islamov Karim Sayidmuradovich

To'g'onsiz suv olishda daryoning gidravlik va nanos
rejimlari..... 3

Исламов Карим Сайидмурадович

Гидравлические и наносные режимы реки при бесплотинном
водозаборе..... 21

Islamov Karim Sayidmuradovich

Hydraulic and sediments regimes of the river in water intake without
dams..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

PhD.26/26.01.2023.T.109.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

ISLAMOV KARIM SAYIDMURADOVICH

**TO‘G‘ONSIY SUV OLIISHDA DARYONING
GIDRAVLIK VA NANOS REJIMLARI**

05.09.07 - Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand - 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T4031-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samgasi.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bazarov Dilshod Rayimovich,
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shakirov Baxtiyar Maxmudovich
texnika fanlari doktori, professor

Eshev Sobir Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/26.01.2023.T.109.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140143, Samarqand shahar, lolazor 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93, e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura – qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140143, Samarqand shahar, lolazor 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93, e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

K. Mamasoliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

B.M. Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

K. Mamasoliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, fizika-matematika
fanlari doktori, professor

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda daryo o‘zanlarida gidrotexnika yoki gidroenergetika inshootlarini qurishda oqim dinamikasining keskin o‘zgarishini bashorat qilish xususan, to‘g‘onsiz suv olishda o‘zandagi jarayonlarning rivojlanishi inshoot ishonchliligiga va ishlashiga salbiy ta’sirlari oldini olish, shuningdek qishloq xo‘jalik ekinlariga kafolatlangan miqdorda suv yetkazib berilishini ta’minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda global iqlim o‘zgarishi inobatga olib to‘g‘onsiz suv olish bosh inshooti ish rejimini baholash, daryoning yuqori oqimini boshqarilishi natijasida chuqurlik va kenglik bo‘yicha o‘zan jarayonlarining o‘lchamlarini aniqlash, ularni hisoblash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish zamonaviy o‘zan gidravlikasining asosiy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada, jumladan to‘g‘onsiz suv olishda, eng kam miqdordagi muallaq va o‘zan tubi oqiziqlari bilan kafolatlangan suv olish imkoniyatini yaratish, to‘g‘onsiz suv olish bosh inshootlarining xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda daryo o‘zanlarida va to‘g‘onsiz suv olish kanallarining kirish qismlarida sodir bo‘ladigan o‘zan jarayonlari dinamikasini bashorat qilish, nanoslarning taqsimlanishini baholash usullarini takomillashtirish, to‘g‘onsiz suv olishning ishonchliligi uchun sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, daryo o‘zanlarida deformatsiyani hisoblash usullarini ishlab chiqish, ularning morfologiyasini hisobga olgan holda to‘g‘onsiz suv olish bosh inshootlariga kafolatlangan va sifatli suv olishini ta’minlashda zamonaviy o‘zan gidravlikasi bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, bosh inshoot ish samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi eksperimental tadqiqotlar olib borish, o‘zan jarayonlarining ko‘p omilligi, vaqt va yo‘nalish bo‘yicha keskin o‘zgaruvchanligi tufayli ko‘rib chiqilayotgan yo‘nalish bo‘yicha keng qamrovli nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Hozirda respublikamizning iqtisodiy siyosatida mamlakatni oziq ovqat bilan ta’minlash, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini to‘liq suv resurslari bilan kafolatli ta’minlash, gidrotexnik va meliorativ tarmoqlarni qurish, rekonstruksiya qilish kabi masalalar ustida samarali ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqilgan va unda “Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish”¹ vazifalari belgilangan. Shu munosabat bilan to‘g‘onsiz suv olish inshootlari elementlari uchun yangi va mavjud gidravlik sxemalarini takomillashtirish, alohida konstruktiv yechimlar qabul qilish, bundan tashqari suv oluvchi inshootlari uchun kerakli suv sarflarini eng kichik miqdordagi nanoslarni o‘tkazuvchi suv oluvchi kanallar o‘zanlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2020-yil 10- iyuldagi PF-6024-son "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 25-sentyabrdagi PQ-3286-son "Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'g'onsiz suv olish, daryo o'zanidagi jarayonlarni baholash va hisoblash, suv oqimini bo'linishi qonuniyatlarini aniqlash usullariga oid nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan Respublika va chet ellarda quyidagi olimlar shug'ullanishgan: I.I. Levi, V.M. Loxtin, V.N. Goncharov, A.N. Gostunskiy, N.V. Grishanin, I.V. Popov, K.I. Rossinskiy, G.A. Fedotov, I.A. Kuzmin, V.S. Altunin, N.F. Daneliya, I.L. Rozovski, O.V. Andreev, N.A. Mixaylov, N.S. Znamenskoy, V.S. Lapshenkov, D.B. Dmitriev, V.M. Lyaxter, J.A. Kunj, F.M. Holly, A. Verwey, A.N. Militeev, V.V. Belikov, V.K. Debolskiy, V.M. Prudovski, B.L. Istoriq, G.L. Gladkov, K.Sh. Latipov, I.K. Xujaev, A.M. Arifjanov, M.R. Bakiev, F.X. Xikmatov, S.S. Eshev, I.A. Axmedxodjaeva, M. Ikromova, F. Shoazizov, L. Samiev va boshqalar.

Daryolardan to'g'onsiz suv olish masalalariga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar bilan S.T. Altunin, S.X. Abalyans, A.M. Muxamedov, X.A. Irmuxamedov, X.A. Ismagilov, I.A. Buzunov, R. Urkinbaev, J. Kuchkarov, D.R. Bazarov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida batafsil yoritilgan va ularning natijalari ma'lum darajada amaliyotga qo'llanilib kelinmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № 25/2021 Qarshi magistral kanali 1-sonli nasos stansiyasiga suv olib kelish sohasidagi o'zandagi jarayonlarini baholash hamda zemsnaryadlar va nasos stansiyasi agregatlarini ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda 33/22-sonli Turkmanistonda joylashgan "Qarshi magistral kanali 1-sonli nasos stansiyasiga suv olib kelish kanali uzunligi bo'yicha nanoslar cho'kish sohasini aniqlash va kanalning suv o'tkazish qobiliyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasining tadqiqot ishlari doirasida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi. To'g'onsiz suv olishda daryoning gidravlik va nanos rejimlarini baholash usullarini takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

to'g'onsiz suv olish inshooti doirasida oqimning o'ziga xosligi, nanoslarning cho'kishi va o'zan tubining yuvilish xususiyatlarini o'rganish;

to'g'onsiz suv olishda nanoslarning taqsimlanishi va yo'nalishini bashorat qilish dasturini yaratish;

sonli tadqiqotlar asosida to'g'onsiz suv olish sohasida yo'naltiruvchi inshootlarni joylashtirishning gidravlik sxemalarini yaratish;

to'g'onsiz suv olishning pastki b'efida oqim tezligining taqsimlanishi va yo'nalishini bashorat qilish dasturi asosida o'zan jarayonlari jadalligini bashoratlash texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti Amudaryoda joylashgan Qarshi magistral kanali (QMK) to'g'onsiz suv olish inshooti.

Tadqiqotning predmeti Qarshi magistral kanaliga to'g'onsiz suv olish sohasida o'zan jarayonlari va ularning matematik modellari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida matematik modellashtirish va o'zan jarayonlarini sodir bo'lishi bo'yicha dala kuzatuvlarini o'tkazish, chiziqli bo'lmagan tenglamalarni qabul qilingan chegaraviy shartlarda va eksperimental hisoblashlar asosida sonli yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida to'g'onsiz suv oluvchi kanalga nanoslar kirishini kamaytirishni gidravlik konstruksiyalarini asoslash orqali oqimni yo'naltiruvchi yoriq xandakni yangi konstruktiv elementlari ishlab chiqilgan;

o'zani yengil yuviluvchan daryolardan to'g'onsiz suv olishda oqimning beqaror harakatini hisoblash usullari takomillashtirish orqali nanoslarni taqsimlanishi va yo'nalishi bashorat qilingan;

to'g'onsiz suv olish kanaliga oqimni yo'naltiruvchi inshootlarni joylashish o'rni gidravlik konstruksiyalari sonli tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan;

dala tadqiqotlari asosida kam suvli davrlarda daryodan to'g'onsiz suv olish sohasida oqimning gidravlik xususiyatlari va daryoning o'zan jarayonlari baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqot materiallaridan daryo uchastkalarida yangi qurilgan va rekonstruksiya qilinayotgan to'g'onsiz suv olish inshootlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish mumkin.

yoriq xandak va oqim yo'naltiruvchi qurilmalarni konstruktiv loyihalash va ishlatish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar ushbu turdagi suv oqimlarida to'g'onsiz suv olish uchun ishonchli va tejamkor konstruktiv yechimlarini asoslash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik modelning impuls va massa saqlanish qonunlari bilan tasdiqlanganligi, qo'llaniladigan hisoblash usullarining konservativligi, shuningdek, olingan natijalarning tadqiqot obyektining tabiatiga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'g'onsiz suv olish sohasida deformatsiya jarayonlarni ifodalovchi ikki o'lchamli matematik modelni ishlab chiqish va zamonaviy dasturlar asosida daryo o'zanidagi jarayonlarni hisoblash usullarini nazariy va eksperimental takomillashtirilganligi, sonli tadqiqotlar asosida to'g'onsiz suv olish sohasida oqim yo'naltiruvchi inshootlarni joylashtirishning gidravlik va konstruksion elementlarini ishlab chiqilganligi, o'zan qirg'oqlari va tubining deformatsiyalanishini bir vaqtning o'zida hisoblash usulini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati daryo o'zanida oqimning gidravlik elementlari va o'zanning morfometrik parametrlari o'rtasidagi funksional bog'liqliklarni olinganligi, Qarshi magistral kanali to'g'onsiz suv olish sohasidagi nanoslar bilan to'yingan oqimni parametrlarini aniqlashda ro'y beradigan o'zandagi jarayonlar hisoblanganligi, to'g'onsiz suv oluvchi kanalga nanoslar kirishini kamaytirishni gidravlik konstruksiyalarini asoslash orqali oqimni yo'naltiruvchi yoriq xandakni yangi konstruktiv elementlarini ishlab chiqilganligi, suv olishning pastki b'efdagi o'zandagi jarayonlar dinamikasini baholanganligi va to'g'onsiz suv olishda kam suvli davrlarni inobatga olib suv olishni yaxshilash usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'g'onsiz suv olishda o'zan jarayonlari jadalligini baholash va inshootning ekspluatatsion sharoitini ilmiy va eksperimental olingan natijalar asosida takomillashtirish:

to'g'onsiz suv olish hududida suv oqimining harakatini ifodalovchi ikki o'lchamli takomillashtirilgan matematik modeli Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan(Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil 08-yanvardagi 02/07-100-sonli ma'lumotnomasi). Natijada suv oqimi va o'zan tubi oqiziqlari orasidagi bog'lanish qonuniyatlari va to'g'onsiz suv olish inshooti sohasida o'zandagi jarayonlar xarakterini aniqlash imkoni yaratilgan;

suv olish kanaliga oqimni yo'naltiruvchi Yoriq xandaqning gidravlik konstruksiyalarini inobatga olgan holda takomillashtirish bo'yicha olingan tadqiqotlar Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan(Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil 08-yanvardagi 02/07-100-sonli ma'lumotnomasi). Natijada to'g'onsiz suv olishda o'zan jarayonlari o'zgarishini oldi olingan va oqimni suv olish kanaliga yo'naltirish orqali eksplutatsiya samaradorligini 12 foizga yaxshilash imkoni yaratilgan;

daryodan to'g'onsiz suv olish inshooti sohasida vaqtga bog'liq ravishda oqim tezliklarini yuza maydon bo'yicha taqsimlanishini va oqimdagi nanoslar harakatini o'zgarishini inobatga olgan holda oqim yo'nalishini bashorat qilish imkoniyati Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan(Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil 08-yanvardagi 02/07-100-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan dastur yordamida oqim tezliklarining yuza maydon bo'yicha taqsimlanishi va nanoslar yo'nalishini bashorat qilish, daryodan to'g'onsiz suv olishda inshoot ish rejimining ta'siri natijasida sodir bo'ladigan o'zan jarayonlarini oldini olish imkoniyati yaratilgan.

Sonli tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan gidravlik konstruksiyalari Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan(Suv xo'jaligi vazirligining 2025- yil 08-yanvardagi 02/07-100-sonli ma'lumotnomasi). Natijada gidravlik konstruksiyalarni qo'llash asosida o'zanni tozalash ishlari samaradorligi ortib, yilning suv kam bo'lgan davrlarida oqimni suv olish kanaliga yo'naltirish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shundan 3 tasi xorijiy jurnallarda (2 ta maqola Scopus bazasiga indekslangan) va 5 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 1 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliliigi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan natijalar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zani tez yuviluvchan gruntlardan o'tuvchi daryolarda to'g'onsiz suv olishda ekspluatatsiya muammolarini o'rganishni hozirgi ahvoli”** deb nomlangan birinchi bobi respublikamizdagi o'zani tez yuviluvchan gruntlardan o'tuvchi daryolarda to'g'onsiz suv olish inshootlarining ekspluatatsiya jarayonidagi muammolar sharhiga bag'ishlangan.

O'zani tez yuviluvchan gruntlardan o'tuvchi daryolarda ekspluatatsiya jarayonidagi to'g'onsiz suv olish inshootlarini ishlash samaradorligini oshirishda gidravlik sharoitlari suvning tarkibiga qarab, kanalning kirish qismiga loyqaligi 5-8kg/m³ gacha bo'lgan oqim kiradi. Yillik nanoslar miqdori 8 dan 12 million tonnagacha bo'ladi. O'zan qayta shakllanishi tahlillari shuni ko'rsatadiki, Amudaryoning asosiy o'zanining o'zgarib turishi, suv olishning ko'payishi, daryoda nanoslar ko'payishi natijasida suv olish kanali tubiga nanoslar yig'iladi. Bu kanal tubining chuqurlashishiga yoki ko'tarilishiga olib keladi. Ko'pgina xolatlarida oqimning jadal oqishi hamda nanoslar suv olish kanalining o'ng qirg'og'iga tashlanishi oqimning chap qirg'oqqa siljishiga qisman ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek ushbu bobda daryolardan to'g'onsiz suv olish inshootlari sohasida suv oqimining bo'linishi jarayonida yuzaga keladigan gidrologik hodisalar kuzatilishi qirg'oqlarni yuvilishini oldini olish uchun oqim yo'nalishini rostlash chora tadbirlari o'rganildi. Bundan ko'zlangan maqsad to'g'onsiz suv olish kanalining irrigatsiya tizimlariga olinayotgan suv sarfi grafisini ta'minlashdan iborat.

Daryo o'zanining yuviluvchanligi, uning morfodinamik jarayonlari va gidravlik rejim bilan bog'liq xususiyatlari ko'plab olimlar o'rganganlar (V.P.Nedriga, I.I.Patapov, V.N.Goncharov va boshqalar). Ularning ishlarida daryolarda qirg'oq yemirilishi, tubning ko'chishi, o'zan shaklining o'zgaruvchanligi, suv sathining tebranishi hamda gidravlik barqarorligiga doir fundamental qonuniyatlar keltirilgan.

Daryolardan to'g'onsiz suv olish inshootlari bilan A.A.Makarevich, Ya.S.Muxammedov, D.R.Bazarov, B.E.Norqulov va boshqa olimlar tomonidan bajarilgan ishlar tizimli o'rganildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Deformatsiyalanuvchi o'zandagi jarayonlarni modellashtirish asoslari”** deb nomlanib, nanoslarni tashiydigan fazali suv oqimining beqaror oqim harakatining differensial, bir va ikki o'lchamli gidrodinamika tenglamalari, qo'llanilish sohalari va sonli tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Daryo yoki kanal suvlarining oqimi harakatini matematik modellarini ishlab chiqish oqim dinamikasi va gidravlika sohalarida muhim ahamiyatga ega. Bu modellar suv oqimlarining dinamikasi, tezligi, bosimi, chuqurligi va boshqa xususiyatlarini tahlil qilish hamda boshqarish uchun qo'llaniladi.

Oqimdagi cho'kmalar uchun F.I. Franklning gidrodinamik tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga ega.

$$\left. \begin{aligned} \rho_s \frac{dU_x}{dt} &= -\frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{s} R_x + \rho_s X_s, \\ \rho_s \frac{dU_y}{dt} &= -\frac{\partial p}{\partial y} + \frac{1}{s} R_y + \rho_s Y_s, \\ \rho_s \frac{dU_z}{dt} &= -\frac{\partial p}{\partial z} + \frac{1}{s} R_z + \rho_s Z_s, \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

bu yerda S - nisbiy hajmli R_x , R_y , R_z o'lchamdagi to'xtatilgan moddaning konsentratsiyasi(loyqalik).

X_s , Y_s , Z_s - tashqi tezlashuv komponentlari zarrachaga ta'sir qiluvchi massa kuchi (tortishish); P - bosim X_s , Y_s , Z_s ; R_x , R_y , R_z - suyuqlik va zarrachalarning o'zaro ta'sir kuchi komponentlari; U_x , U_y , U_z - oqimdagi qattiq zarrachalarning harakat tezligi komponentlari; ular suyuqlik tezligining tegishli tarkibiy qismlaridan va undagi zarrachalarning nisbiy harakatidan iborat. U_x , U_y va U_z vaqti bo'yicha to'liq hosilalar oddiy munosabatda ifodalanadi.

Suv oqimini impuls saqlanish qonuni va suyuqlikning massasi nazariyasiga asoslanib matematik model gipotezasini keltiramiz. Beqaror oqim harakati uchun Sen-Venan tenglamasini keltirib chiqarishda quyidagi parametrlardan foydalaniladi:

- Suv oqimining kengligi va chuqurligi;
- Markazdan qochma kuch qatnashmagan holda kanalni to'g'ri chiziqli deb olish;
- Oqimning ichki bosimi gidrodinamik qonunlariga asoslanishi;
- Suv sirti ko'ndalang kesimini gorizont holatda olish;
- Oqimning kritik tezlikgacha bir tekis o'zgarishi;
- O'zan tubining qiyaligi $I(x)$, $I = I(x) = \tan x$ bosimsiz oqim o'zani asosi chizig'ining gorizont bilan hosil qilgan burchak tangensi.

- $Q(x, t)$ - suv sarfi $Z(x, t)$ - chuqurligi va kengligining o'rtachasi, $Q = \omega \cdot v$ -sarf.

Beqaror oqim harakatini differensial tenglamalarini keltirib chiqarish uchun Nave-Stoks tenglamalar sistemasini Sen-Venan tomonidan siqilmas suyuqliklar uchun divergentsiya tenglamasidagi tezlik komponentalariga $u = u(x(t), y(t), z(t))$,

$v = v(x(t), y(t), z(t))$, $w = w(x(t), y(t), z(t))$ asoslanib, Nave-Stoks tenglamalar sistemasi qayta yozganda quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\begin{aligned}\frac{\partial u}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial x}(uu) + \frac{\partial}{\partial y}(uv) + \frac{\partial}{\partial z}(uw) &= X - \frac{1}{\rho} \frac{\partial P}{\partial x} + \nu \nabla^2 u, \\ \frac{\partial v}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial x}(uv) + \frac{\partial}{\partial y}(vv) + \frac{\partial}{\partial z}(vw) &= Y - \frac{1}{\rho} \frac{\partial P}{\partial y} + \nu \nabla^2 v, \\ \frac{\partial w}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial x}(wu) + \frac{\partial}{\partial y}(wv) + \frac{\partial}{\partial z}(ww) &= Z - \frac{1}{\rho} \frac{\partial P}{\partial z} + \nu \nabla^2 w.\end{aligned}\quad (2)$$

Tenglamalar sistemasini $[0, T_0]$ intervaldagi integrallab Sirt tarangligi, $\tau \partial L^{-1} / \partial x$, egriligining ta'siri va tezlanishning vertikal komponentini, shuningdek, suyuqlik oqimining harakatiga ta'siri kichikligi sababli ba'zi yechimlarni e'tiborsiz qoldirib, Sen-Venan tenglamalarini quyidagicha yozamiz:

$$\begin{aligned}\frac{1}{gF} \left(\frac{\partial Q}{\partial t} + \frac{2Q}{F} \frac{\partial Q}{\partial X} \right) + \frac{Q|Q|}{K^2} + \frac{\partial Z}{\partial X} - I &= 0, \quad \frac{\partial Q}{\partial X} + B \frac{\partial Z}{\partial t} = d, \\ K &= \frac{1}{H} \frac{F^{5/3}}{X^{2/3}}.\end{aligned}\quad (3)$$

Sen-Venan tenglamalarining bu sistemasi giperbolik tenglamalar sistemasidir. Ushbu tizim yordamida muammolarni hal qilish uchun, ikkita boshlang'ich va ikkita chegara shartlarini o'rnatish kerak:

$$\begin{aligned}Z(x, t)|_{t=0} &= Z^0(x), & Z(x, t)|_{t=0} &= Z_0(t), \quad x \in [0, L], \\ Q(x, t)|_{t=0} &= Q^0(x), & Z(x, t)|_{x=L} &= Z_L(t), \quad t \in [0, t].\end{aligned}\quad (4)$$

Sen-Venan tenglamalarining inersial shartlarini bekor qilgandan so'ng soddalashtirilgan modeli quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\begin{aligned}Q|Q| &= K^2 \left(I - \frac{\partial t}{\partial X} \right), \\ \frac{\partial Q}{\partial X} + B \frac{\partial Z}{\partial t} &= d.\end{aligned}$$

Bu sistema parabolik tipga kiradi. Uning yechimi bir boshlang'ich va ikkita chegara shartini talab qiladi.

(4) tenglamalar sistemasining $Z(x, t)$ va $Q(x, t)$ sohasidagi $x \in [0, L]$ va $t \in [0, T]$ chegaraviy (boshlang'ich va chegaraviy) shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish mumkin.

Bir o'lchamli matematik modellar sifatida suv oqimining harakatini ifodalovchi modelni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\frac{\partial Q}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial x} \left(QU + \frac{1}{2} \int_{Y_L}^{Y_R} h^2 dy \right) = g i \omega - \lambda \frac{Q^2}{\omega R} + F \quad (5)$$

$$\frac{\partial \omega}{\partial t} \Big|_{z_b = \text{const}} + \frac{\partial Q}{\partial x} = 0 \quad (6)$$

$$\frac{\partial \omega S}{\partial t} + \frac{\partial QS}{\partial x} = -K(S - S_H) \quad (7)$$

$$\left(1 - p \frac{\partial \omega}{\partial t}\right)_{z=const} = -K(S - S_H) \quad (8)$$


bunda: Q - o‘zanda harakatlanayotgan ikki faza (suv + qattiq jism zarrachalari, nanoslar) oqimning sarfi; t - vaqt; $U = Q / \omega$ - oqimning o‘rtacha tezligi; ω - oqimning harakatdagi kesim yuzasi; g - erkin tushish tezlanishi; Y_{yuz} , Y_{qan} - mos ravishda o‘zan chap va o‘ng qirg‘oqlarining suv oqimi bilan tutashgan chizig‘i koordinatalari; $h = z - z_{\text{myo}}$ - oqim chuqurligi; z - suv sathi (Y koordinataga bog‘liq emas); $i = \sin \alpha \approx \alpha$ - oqim o‘qining OX gorizontal tekislikka nisbatan qiyaligi (α - ular o‘rtasidagi burchak); λ - gidravlik ishqalanish koeffitsiyenti; $R = \omega / \chi$ - gidravlik radius; χ - ho‘llangan perimetr; F - o‘zanning noprizmatikligini hisobga oluvchi zichlikka nisbatan birlik uzunlikka mos keluvchi solishtirma kuch; q yon tomonlama oqimning solishtirma suv sarfi S - nanos zarrachalarining oqim tarkibidagi hajmiy miqdori; S_H - oqimning tashuvchanlik qobiliyati; K - o‘zan tubidagi nanoslar va oqim o‘rtasidagi almashinuv jadalligini ko‘rsatuvchi koeffitsiyent; p - grunt g‘ovakligi.

Yuqorida keltirilgan Sen-Venan tenglamalarida inersial hadlar tezlikning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi va konvektiv tezlanishlarni anglatadi.

Agar bu inertsial shartlar bekor qilinsa, ya‘ni tezlanish juda kichik deb qaralsa, model juda sekin o‘zgaruvchi gidravlika modeliga aylanadi.

Dissetatsiyaning 3-bobi **“Daryodan to‘g‘onsiz suv olish hududida gidravlik va nanos rejimlarini o‘zgarishi”** deb nomlangan bo‘lib, bu bobda tadqiqot obyektlarining geografik joylashishi, Amudaryodan to‘g‘onsiz suv olish hududida o‘zan jarayonlarining shakllanishi, Qarshi magistral kanaliga to‘g‘onsiz suv olishda daryoning gidrologik, gidravlik va nanos rejimlari o‘zgarish qonuniyatlari va to‘g‘onsiz suv olish inshooti xususiyatlari keltiriladi.


Qarshi magistral kanali Turkmaniston respublikasi Lebap viloyati hududida Kerki shahrining suv o‘lchash postidan 22 km balandlikda joylashgan bo‘lib, Pulizindan buruni ya‘ni Amudaryodan “NOS” inshooti orqali suv oladi(1-rasm).




1-rasm. QMK to‘g‘onsiz suv olish inshooti kirish qismi. 18.01.23 y.

Qarshi magistral kanalining gidrologik xususiyatini suv o'lchash gidropostlarda amalga oshirilib boriladi. Chuqurlik ma'lumotlari asosida daryoning morfometrik parametrlari aniqlandi. Daryoning kengligi bo'yicha o'lchangan vertikkallar orasidagi masofalarni yig'indisi 1 stvorda 712 metr tashkil qildi. Belgilangan stvorlar bo'yicha daryoning ko'ndalang kesim yuzasi quyidagicha aniqlandi (2,3-rasmlar).

2-stvor chuqurliklari




2-rasm. QMK suv olish hududi 2 o'lchov stvorida chuqurliklarni o'zgarishi



3-rasm. Amudaryoning Kerki postidagi o'rtacha yillik suv oqimining o'zgarishi.

O'lchash ishlarimizda biz oqim tezliklarini aniqlash uchun chegaraviy shartlar qabul qildik. Chuqurlik $h < 0,5 m$ bo'lsa, u holda bu vertikalda bitta nuqtada, kuzatish nuqtasining chuqurligi $h_k = 0,6h$ ga, chuqurlik $h = 0,5 - 1,0 m$ bo'lsa, ikkita nuqtada $h_k = 0,2h$ va $h_k = 0,8h$ ga, chuqurlik $h = 1,0 - 3,0 m$ bo'lsa, u holda bu vertikalda uchta nuqtada va kuzatish nuqtasining chuqurligi $h_k = 0,2h$, $h_k = 0,6h$, va $h_k = 0,8h$ ga teng, agar $h > 3m$ dan chuqur bo'lsa, u holda bu vertikalda beshta nuqtada, $h_k = 0,2h$; $h_k = 0,6h$; $h_k = 0,8h$; h_k - suvni tubida deb qabul qilindi va shu nuqtalarda oqim tezliklari o'lchandi.




4-rasm. Tanlangan stvorlardagi vertikallarda oqim tezligining chuqurlik bo'yicha o'zgarishi

Amudaryodan QMKga to'g'onsiz suv olishda dastlabki birinchi km da katta nanoslar cho'kadi, yana 10-kmda nisbatan mayda fraksiyali nanoslar cho'kishi kuzatiladi.

Nanoslarning o'zanga kirib kelishi ortishi oqim tomonidan ularni tashish uchun zarur bo'lgan, eroziya bazisi bilan belgilanadigan o'zan tubi nishabligining me'yoriy qiymatini talab qiladi. Bunday sharoitda o'zan shaklining to'g'rilanishi va uning egri-bugri qismlarining silliqqlanishi kuzatiladi. Nanoslar oqimining ko'payishi esa o'zanda harakatlanayotgan suv oqimining chuqurligining kamayishiga hamda o'zan kengligining ortishiga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Gidravlik va nanos rejimlari o'zgarishini suv olishga ta'sirini eksperimental baholash”** deb nomlangan 4-bobida Eksperimental tadqiqotlar va ularning natijalari, oqim harakatining ikki o'lchamli matematik modellash-tirishi va dala va eksperimental tadqiqot natijalari taqqoslash natijalari keltirilgan. Eksperimental tadqiqotlar TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti laboratoriya xonasida olib borilgan (5-rasm).




5-rasm. Eksperimental tadqiqot o'tkazilgan to'g'onsiz suv olish modeli.

Kanalidagi suv oqimining ruxsat etilgan tezligini eng kichik chegarasini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi. Chunki kanalning nanoslar bilan to'lib qolishining oldi olinadi(6,7-rasmlar).



6-rasm. Eksperimental tadqiqot o'tkazish jarayonidagi oqimning o'rtacha tezligini hisoblash.

o'zandagi umumiy oqim tezliklari



	1	2	3	4	5	6
■ V1	0,508	0,45	0,429	0,43	0,467	0,345
■ V2	0,509	0,437	0,429	0,559	0,461	0,371
■ V3	0,425	0,39	0,415	0,427	0,465	0,365

7-rasm. Egri o'zandagi suv oqimining to'liq oqim uchun tezlik epyurasi.

Eksperimental tadqiqotlarda suv sarfining o'zgarishi rostlovchi inshoot orqali $Q = 1-18 \text{ l/s}$ gacha, oqim tezligi $V = 0,01-0,55 \text{ sm/s}$ gacha, oqim chuqurligi esa $0,5-3,5 \text{ sm}$ gacha olib borildi. Tadqiqot ishi doirasida kanalga berilayotgan suv sarfi Chipoletti suv o'tkazgichi orqali o'lchab borildi:

$$Q = 1,86 \cdot b \cdot H^{3/2}.$$

Bunda Q - sarf; b - o'zan eni; H - chuqurlik.

Eksperimental tadqiqotni olib borishda nanoslar taqsimoti dinamikasi o'rganildi. Natijada, nanoslarning cho'kishi, tashish rejimi va to'g'onsiz suv olish inshootiga kirish jarayoni kuzatildi. Egri o'zandagi oqim rejimini, vaqt davomida

o'zgaruvchanligi, nanoslarning yirikligi, fraksion va kimyoviy tarkibiga oid ma'lumotlar ham o'rganildi(8,9-rasmlar).




8-rasm. To'g'onsiz suv olish inshootining kirish qismida nanoslarning to'planishi



9-rasm. Vaqt o'tishi bilan to'g'onsiz suv olish inshootining kirish qismida nanoslarning to'planishi

Nanoslar aralashgan holatda tajribalar egri o'zanda olib borildi. O'zanning gidravlik parametrlari quyidagicha qilib olindi. Suv sathi 4,0sm, oqim tezligi 0,55m/s, o'zan tubining g'adir-budurligi bo'lmagan holda olib borildi. O'lchovlar vaqt bo'yicha 8 ta vertikalda amalga oshirildi. Suv oqimi maksimal sarfi 17,8 l/s, maksimal chuqurligi 4 sm, oqimning maksimal tezligi 0,76 m/s. Qum aralashmasini balandligi 1,2 sm, uzunligi 2,6 m bo'lgan holatlarda amalga oshirildi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, suv kam bo'lgan vaqtda o'zanda orolchalar hosil bo'lib, asosiy oqim chap qirg'oq bo'ylab oqadi yoki chap va o'ng qirg'oqdagi suv oqimi deyarli bir xil bo'ladi(10-rasm).



10-rasm. Eksperimental tadqiqotda egri o'zanda joylashgan to'g'onsiz suv olish sohasida cho'kmalardan hosil bo'lgan orolchalardan yoriq xandak ochish modeli.

Ikki o'lchamli matematik modellar sifatida suv oqimining harakatini ifodalovchi modelni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\frac{\partial Q_i}{\partial t} + \frac{\partial Q_j U_j}{\partial x_j} + gh \frac{\partial z}{\partial x_i} = -\lambda Q_i \frac{|U|}{2h} - gh \frac{\partial z_d}{\partial x_i} \quad (i, j = 1, 2) \quad (9)$$

$$\frac{\partial z}{\partial t} + \frac{\partial Q_i}{\partial x_i} = 0 \quad (10)$$

$$(1-p) \frac{\partial z_d}{\partial x_i} + \frac{\partial q_i^{(s)}}{\partial x_i} = 0 \quad (11)$$

$$q_i^{(s)} = U_i + hs + D \frac{\partial z_d}{\partial x_i} \quad (12)$$


$$D = a_q h s |U| \left(1 - \frac{0,67 \alpha_w a_s |U|}{w(\alpha_b + \alpha_w |U|) / w} \right) \quad (13)$$

bunda: $Q_{i,j}$ - solishtirma suv sarfi vektorlari tashkil etuvchilari; $U_{i,j}$ - oqimning chuqurlik bo'yicha o'rtalashtirilgan tezliklari, x_i - o'zanning plandagi koordinatalari; z - oqim sathi balandligi belgisi; z_b - o'zan tubi belgisi; h - chuqurlik; λ - gidravlik ishqalanish koeffitsiyenti; $a_q, a_s, \alpha_q, \alpha_w, \alpha_b$ - tuzatish koeffitsiyentlari. Tubda surilib harakatlanayotgan nanoslar uchun: $\alpha_q \approx 3,3$, $a_s \approx 0$, $\alpha_w \approx 0,01$, $\alpha_b \approx 0,24$. Oqim tarkibidagi muallaqlashgan nanoslar uchun: $\alpha_q \approx 3,3$, $a_s \approx 1,49$, $\alpha_w \approx 0,04$, $\alpha_b \approx 0,24$; $q_i^{(s)}$ - nanoslarning solishtirma sarfi, p - o'zan o'tadigan grunt g'ovakligi; D - oqimning diffuziyasini xarakterlovchi koeffitsiyenti.

Ushbu ikki o'lchamli kompyuter modelini asosini Sen-Venan tenglamalari sistemasi tashkil qiladi. Bu model o'zan qirg'oqlari va tubining deformatsiyalanishini(yuvilish va loyqa bosish) bir vaqtning o'zida hisoblash imkonini berib, oqimning gidrodinamik parametrlarini o'zgarishini boshqa modellarga nisbatan to'liqroq inobatga olish imkoniyatini beradi. Ikkinchi bobda to'g'onsiz suv olishda daryoda o'zan jarayonlarini bashorat qilishda prof. D.R. Bazarov va prof. A. N. Militeev tomonidan ishlab chiqilgan bir o'lchovli va ikki o'lchovli matematik modelning qo'llanilishi natijalari tahlil qilindi.


Suv pastligi davri to'g'onsiz suv olishda eng qiyin davr hisoblanganligi sababli, Amudaryo bo'ylab turli davrlar uchun deformatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda nanoslarning harakatlanish rejasi o'rganildi. Ushbu tadqiqot obyektida Amudaryo oqim tezligi $Q = 2600 \text{ m}^3 / \text{s}$ dan $300 \text{ m}^3 / \text{s}$ gacha va kanalga suvning mos ravishda $40 \text{ m}^3 / \text{s}$ dan $180 \text{ m}^3 / \text{s}$ gacha bo'lgan vaqtlari bo'yicha hisoblash tadqiqotlari natijalari keltirilgan.

Matematik modelga asoslanib raqamli gidrodinamik *MapInfo* dasturidan olingan ma'lumotlarni *Red_Komar* grafik muharririga yuklangandan so'ng quyidagi grafiklar taqdim qilinadi(11-rasm).




11-rasm. *Red_Komar* grafik muharririda 5 soat davomida kuzatilganda cho'kmalar harakatining tasvirlanishi.

Daryodan to'g'onsiz suv olishda daryoning kam va sersuv davrini inobatga olib oqimning bo'linishini gidravlik asoslash orqali o'zan jarayonlari jadalligini hisoblash $Q = 794 \text{ m}^3/\text{s}$ da QMK to'g'onsiz suv olish sohasida chuqurliklarni o'zgarishi. Kanalda $140 \text{ m}^3/\text{s}$, $Q = 2163 \text{ m}^3/\text{s}$ da QMK to'g'onsiz suv olish sohasida chuqurliklarni o'zgarishi. Kanalda $180 \text{ m}^3/\text{s}$ (12-rasm).



12-rasm. Red_Komar grafik muharririda daryoning kam va sersuv davridagi oqimning bo'linishini gidravlik asoslash

Nanoslarning taqsimlanishi va yo'nalishini hisoblash dasturi Raqamli gidrodinamik model bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun modelning o'zi quyidagi tarzda yaratilgan:



13-rasm. Red_Komar grafik muharririda daryoning o'ng qirg'og'iga to'planayotgan nanoslarning piksel(nuqta)larda tasvirlanishi.


Dala va eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqqoslash natijalariga ko'ra so'nggi yillarda Amudaryo suvining keskin kamayishi oqibatida, daryoning yuvish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi to'g'onsiz suv olish sohasida egri hududlarida daryo loyqalanish rejimiga o'tadi.

Amudaryoda o'z-o'zidan yuvilishga mo'ljallangan yoriq yordamida Pulizindan qoyasiga to'g'rilangan. Qazish ishlari yer qazuvchi mexanizmlar (eksikatorlar) yordamida amalga oshirilgan. Yoriqning loyihaviy o'lchamlari quyidagicha tavsiya etildi:

yuqoridan eni $B = 60 \text{ m}$ pastdan eni $b = 30 \text{ m}$; qazish chuqurligi $h = 3,0 \text{ m}$; qiyalik yotishi $m = 2,5$; bo'ylama nishablik $i = 0,00010$; Yoriq uzunligi $L = 3 \text{ km}$; egrilik

koeffitsiyenti $K_{izv}=1,55$; dastlabki suv sarfi $Q=m^3/s$; qazishdan so‘ng $150 m^3/s$ kovlash ishlari hajmi $500\,000 m^3$ ni tashkil etdi.

Yoriq xandakning uzunligi, kengligi va chuqurligi daryo kanallarining to‘g‘on-siz suv olish nuqtasiga nisbatan rejalashtirilgan joylashuviga, daryoning allyuvial rejimiga va daryolarning texnik parametrlariga qarab belgilanishi kerak(14-rasm).




14-rasm. Amudaryodan QMK ga to‘g‘onsiz suv olishda yoriq ochishni gidravlik sxemasi



15-rasm. Amudaryodan QMK ga to‘g‘onsiz suv olishda yoriq ochish ishlari.

Yoriq xandakning uzunligi suv olish nuqtasiga nisbatan kanallarning rejalashtirilgan joylashuvi asosida aniqlanishi kerak(15,16-rasmlar).



16-rasm. Tadqiqot natijasida hosil qilingan yoriq(prorez)ning suv sathi.

Amudaryodan to'g'onsiz suv olish kanaligacha maxsus muhandislik tadbirlarini o'tkazish orqali tabiatda olib borilgan tadqiqotlar natijasidan olingan ma'lumotlar bazasining yuqori darajadagi aniqligi talab qilishini tadqiqotlar ko'rsatgan.

XULOSA

“To'g'onsiz suv olishda daryoning gidravlik va nanos rejimlari” mavzusida tayyorlangan dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

- o'g'onsiz suv olish inshooti doirasida oqimning o'ziga xosligi, nanoslarning cho'kishi va o'zan tubining yuvilish xususiyatlarini o'rganish natijalariga ko'ra Amudaryodan Qarshi magistral kanaliga ko'p miqdorda nanoslarni kirib kelishi, kam suvli davrlarda suv sarfi va suv sathining yetarli emasligi, qishki davrda ekspluatatsiyasida jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi.

- eksperimental tadqiqotlar asosida to'g'onsiz suv oluvchi kanaliga nanoslar kirishini kamaytirishni gidravlik konstruksiyalarini asoslash orqali oqimni yo'naltiruvchi yoriqni konstruktiv elementlari taklif etilgan.

- o'zani yengil yuviluvchan daryolardan to'g'onsiz suv olishda oqim harakatini hisoblash usullari takomillashtirish orqali nanoslar rejimini va yo'nalishini bashorat qilish dasturi yaratilgan.

- to'g'onsiz suv olish kanaliga oqimni yo'naltiruvchi inshootlarni joylashish o'rnini gidravlik konstruksiyalari sonli tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan. Unga ko'ra yuqoridan eni $B = 60 \text{ m}$ pastdan eni $b = 30 \text{ m}$; qazish chuqurligi $h = 3 \text{ m}$; qiyalik qiyalik koeffitsiyenti $m = 2,5 \text{ m}$ bo'ylama nishablik $i = 0,00010$; yoriq uzunligi $L = 3 \text{ km}$; egrilik koeffitsiyenti $K_{izv} = 1,55 \text{ m}$; dastlabki suv sarfi $Q = 20 \text{ m}^3/\text{s}$; qazishdan so'ng $150 \text{ m}^3/\text{s}$, kovlash ishlari hajmi 500000 m^3 ni tashkil etdi.

- gidravlik va dala tadqiqotlari asosida kam suvli davrlarda daryodan to'g'onsiz suv olish sohasida oqimning daryo tubining shakli va o'zan jarayonlari baholangan.

- Yoriqning yuvish oqimining talab etiladigan tezligini hosil qilish uchun suv sathlarining farqi kamida $0,83 \text{ m}$ bo'lishini inobatga olib, ushbu tezlik esa kamida 2.6 m/s ta'minlanishi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.26/26.01.2023.Т.109.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

ИСЛАМОВ КАРИМ САЙИДМУРАДОВИЧ

**ГИДРАВЛИЧЕСКИЕ И НАНОСНЫЕ РЕЖИМЫ РЕКИ ПРИ
БЕСПЛОТИННОМ ВОДОЗАБОРЕ**

05.09.07 - Гидравлика и инженерная гидрология

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Samarkand - 2026

Тема диссертации доктора философии(PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.3.PhD/T4031.

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете Ташкентский институт ирригации и механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета (www.samgasi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Базаров Дилшод Райимович,
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шакиров Бахтияр Махмудович
доктор технических наук, профессор

Эшев Собир Саматович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.26/26.01.2023.Т.109.03 при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете «___» _____ 2026 года в ____ часов. (Адрес: 140143, г. Самарканд, ул. Лолазор, дом 70. Тел.: (0366) 237-15-93, e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете (зарегистрирована под номером ____). (Адрес: 140143, г. Самарканд, ул. Лолазор, дом 70. Тел.: (0366) 237-15-93, e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года.

(протокол реестра № ____ от «___» _____ 2026 года)

К.Мамасолиев

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н, профессор

Б.М.Норкулов

Научный секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии по техническим наукам(PhD), доцент

К.Мамасолиев

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире при строительстве гидротехнических или гидроэнергетических сооружений в руслах рек особое значение придается прогнозированию резких изменений динамики потока, в частности, предотвращению негативного влияния развития русловых процессов на надежность и функционирование сооружений при бесплотинном водозаборе, а также обеспечению гарантированной подачи воды для сельскохозяйственных культур. В настоящее время в развитых странах с учетом глобального изменения климата оценка режима работы головного сооружения бесплотинного водозабора, определение масштабов русловых процессов по глубине и ширине в результате регулирования верхнего бьефа реки, разработка и совершенствование методов их расчета остаются одними из основных задач современной русловой гидравлики. В этой связи, в частности при бесплотинном водозаборе, уделяется внимание созданию возможности гарантированного водозабора с минимальным количеством взвешенных и донных наносов, обеспечению безопасной и эффективной работы головных сооружений бесплотинного водозабора.

В мире проводятся научные исследования, направленные на прогнозирование динамики русловых процессов, и на входных участках бесплотинных водозаборных каналов, совершенствование методов оценки распределения наносов, улучшение условий для обеспечения надежности бесплотинного водозабора. В этом направлении приоритетными считаются исследования по современной русловой гидравлике, в частности, разработка методов расчета деформаций в руслах рек, обеспечение гарантированного и качественного водозабора головных сооружений бесплотинного водозабора с учетом их морфологии. Вместе с тем, актуальными задачами являются проведение новых экспериментальных исследований по повышению эффективности работы головного сооружения, а также проведение комплексных теоретических и экспериментальных исследований по рассматриваемому направлению в связи с многофакторностью русловых процессов и их резкой изменчивостью во времени и пространстве.

В настоящее время в экономической политике нашей республики проводятся эффективные научно-исследовательские работы по таким вопросам, как обеспечение страны продовольствием, гарантированное обеспечение населения и отраслей экономики водными ресурсами в полном объеме, строительство и реконструкция гидротехнических и мелиоративных сетей. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы разработаны и определены задачи «Коренного реформирования системы управления водными ресурсами и реализации отдельной государственной

программы по водосбережению»¹. В связи с этим важное значение приобретает совершенствование новых и существующих гидравлических схем

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

элементов бесплотинных водозаборных сооружений, принятие отдельных конструктивных решений, а также выбор водозаборных сооружений, пропускающих минимальное количество наносов при необходимых расходах воды канала.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, показанных в указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 17 июня 2019 года № УП-5742 «О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве» и от 10 июля 2020 года № УП-6024 «Об утверждении Концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», постановлении от 25 сентября 2017 года № ПП-3286 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы охраны водных объектов» а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование соответствует приоритетному направлению развития науки и технологий республики: V.«Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Теоретическими и экспериментальными исследованиями методов бесплотинного водозабора, оценке и расчету русловых процессов, определению закономерностей разделения водного потока в республике и за рубежом занимались ученые: И.И. Леви, В.М. Лохтин, В.Н. Гончаров, А.Н. Гостунский, Н.В. Гришанин, И.В. Попов, К.И. Россинский, Г.А. Федотов, И.А. Кузмин, В.С.Алтунин, Н.Ф. Данелия, И.Л. Розовский, О.В. Андреев, Н.А.Михайлов, Н.С. Знаменской, В.С. Лапшенков, Д.Б. Дмитриев, В.М. Ляхтер, J.A. Kunj, F.M. Holly, A. Verwey, А.Н. Милитеев, В.В. Беликов, В.К. Дебольский, В.М. Прудовский, Б.Л. Историк, Г.Л. Гладков, К.Ш. Латипов, И.К.Хужаев, А.М. Арифжанов, М.Р. Бакиев, Ф.Х. Хикматов, С.С.Эшев, И.А. Ахмедходжаева, М. Икромова, Ф. Шоазизов, Л. Самиев и другие.

